



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUVNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Raxmonova Iroda Fazilovna

irodarakhmonova18@gmail.com

+998909149080

YTT "Raxmonova Iroda Fazilovna"

"At-tilmiiiz" ўқув маркази раҳбари

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lif muassasalarini boshqarishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Jumladan, pedagogik jarayonni boshqarish, ta'lif xizmatlari bozorini boshqarish, moliyaviy boshqaruv hamda xodimlarni boshqarish masalalari yoritilgan. Maqolada ushbu sohalarning ta'lif sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, ularni samarali amalga oshirish mexanizmlari nazariy hamda amaliy jihatdan asoslاب berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif muassasalari, boshqaruv, pedagogik jarayon, ta'lif bozori, moliyaviy boshqaruv, xodimlarni boshqarish

Pedagogik jarayon pedagogika fanining asosiy va fundamental kategoriyalardan biridir. Uning samaradorligi boshqaruv asosida - aniq maqsadga yo'naltirilgan va tartibga solingen holda ta'minlanadi. Zamonaviy tadqiqotchilar (M.M. Potashnik, V.G. Afanasyev va boshqalar) boshqaruv (menejment)ni - "maqsadga erishish san'ati", "ta'sirlarni tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni" sifatida talqin etadilar. M.M. Potashnikning fikricha, boshqaruv - bu rejalashtirish, tashkil etish, nazorat va boshqarish orqali pedagogik faoliyatni maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil qilish jarayonidir. Bunda o'qituvchi, rahbar boshqaruv subyektlari sifatida jarayonni faollashtiradi va optimallashtiradi. Samarali boshqaruv izchillik, uzviylik va birlikni talab etadi; boshqaruv yondashuvlaridagi farqlar esa jarayonning natijadorligini susaytiradi.

Pedagogik jarayonni boshqarishning asosiy xususiyatlari quyidagilar kiradi:

O'zgaruvchanlik (dinamizm) - boshqaruv tizimining moslashuvchanligi va yangilanish qobiliyati;

Barqarorlik - boshqaruv tizimining mustahkam tuzilmasi va doimiy aloqalarining shakllanishi;

Uzluksizlik - boshqaruv faoliyatining davomiyligi;

Diskretlik - boshqaruvning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va faol ritmga asoslanishi;

Ketma-ketlik - jarayonning aniq bosqichlarga asoslanganligi.

Ta'lif tizimining samarali faoliyati, avvalo, uning boshqaruv tizimining puxta tashkil etilganligi va har bir bo'g'inda zamonaviy boshqaruv tamoyillarining qo'llanilishiga bog'liq. Bugungi kunda ta'lif muassasalarini boshqarish ko'p qirrali va kompleks jarayon bo'lib, nafaqat pedagogik jarayonlarni tashkil etish, balki ta'lif xizmatlari bozorini





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



rivojlantirish, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va yuqori malakali kadrlar siyosatini amalga oshirishni ham o‘z ichiga oladi. Shu ma’noda, ta’lim muassasalarini boshqarish quyidagi asosiy sohalarni qamrab oladi: pedagogik jarayonni boshqarish, ta’lim xizmatlari bozorini boshqarish, moliyaviy boshqarish hamda xodimlarni boshqarish.

Davlatning jahon bozorida raqobatbardoshligini saqlab qolishi, avvalo, jamiyatning ta’lim darajasi va millatning ilmiy-innovatsion salohiyatiga bo‘lgan munosabati bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, mamlakatning uzoq muddatli rivojlanishi va barqaror farovonligida ta’lim sohasining o‘rni muhimdir. Hozirgi iqtisodiy jarayonlar zamonaviy texnologik asoslarda amalga oshirilmoqda.

Ta’lim tizimining bozor iqtisodiyotiga o‘tishi modernizatsiyani jadallashtirmoqda. “Ta’lim xizmatlari” (asosiy mazmun) va “ta’lim sohasidagi xizmatlar” (yordamchi xizmatlar) farqlanadi. Ta’lim xizmatlari bozori - xizmat ko‘rsatuvchi va iste’molchilar o‘rtasidagi hamkorlik maydoni bo‘lib, talabalar uning faol ishtiroychilaridir.

Ilmiy-ma’rifiy salohiyatdan samarali foydalanish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligining muhim omilidir. Ta’limga yo‘naltirilgan investitsiyalar multiplikativ ta’sir ko‘rsatadi hamda bilimlar almashinuvi va inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiladi. Kuchli innovatsion raqobat ta’lim xizmatlarining uzlusiz rivojlanishini taqozo etadi. bozor mexanizmining samarali ishlashi uchun quyidagi shartlar muhim: iqtisodiy va huquqiy mustaqillik, raqobat muhitining shakllanishi, innovatsion mexanizmlarning rivoji va davlat hamda bozor tartibga solishning muvozanati. Shuningdek, ta’lim xizmatlari bozorida boshqaruvning asosiy vazifasi - qaror qabul qilish jarayonini ilmiy tahlillar bilan qo‘llab-quvvatlashdir.

Ta’limda moliyaviy menejment - bu ta’lim xizmatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan pul oqimlari va moliyaviy munosabatlarni samarali boshqarish faoliyatidir. U daromad manbalarini shakllantirish, mablag‘lardan oqilona foydalanish, byudjet va boshqa moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy menejmentning asosiy vazifasi - avtonom ta’lim muassasasining barqaror va samarali moliyaviy faoliyatini ta’minlashdir. Bu jarayonda to‘g‘ri moliyaviy qarorlarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va mavjud iqtisodiy sharoitlarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari: iqtisodiy mustaqillik, moddiy manfaatdorlik, moddiy javobgarlik hamda moliyaviy xatar va zaxiralarni samarali boshqarishdan iborat. Moliyaviy boshqaruv tizimi boshqaruv obyekti (moliyaviy resurslar va moliyaviy munosabatlari) va boshqaruv subyekti (moliyaviy bo‘lim, usullar, texnik vositalar, axborot tizimlari)dan tashkil topadi. Moliyaviy menejering asosiy vazifasi - samarali qarorlar uchun zarur bo‘lgan ishonchli va dolzarb ma’lumotlarni tayyorlashdir.

Ta’lim muassasasi – bu muvaffaqiyati asosan xodimlarning salohiyati va ularning samarali faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan tashkilotdir. So‘nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida ta’lim muassasalarida xodimlarni boshqarish tamoyillari va amaliyoti ham sezilarli darajada yangilanmoqda. Bunday





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



muassasalarning tashkilot sifatida o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: davlat nazoratining yuqoriligi, jamiyat oldidagi kuchli ijtimoiy mas’uliyat, konservativizm va yangiliklarga nisbatan qarshilik, moliyaviy va huquqiy cheklavlarning mavjudligi, shuningdek, tijorat maqsadining bo‘limgani tufayli samaradorlikni aniq baholashdagi qiyinchiliklar. Shu bilan birga, bugungi kunda ta’lim muassasalarining boshqaruvin tizimida bir qator yangi tendensiyalar ham kuzatilmoqda: moliyaviy erkinlikning oshishi, marketing va ommaviy axborot bilan ishlashga bo‘lgan e’tiborning ortishi, imidj va brend yaratishga qaratilgan strategik faoliyatning kuchayishi, sifat menejmenti va umumiylar strategik boshqaruvga bo‘lgan ehtiyojning oshishi. Xodimlar bilan ishlash bir necha asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Yollash bosqichida asosan pedagogik oliy ta’lim muassasalari, internet resurslari va mehnat bozoridan foydalaniлади, maxsus yollash agentliklari amalda deyarli qo‘llanilmaydi, tanlov jarayoni esa ko‘pincha soddalashtirilgan shaklda olib boriladi. Rasmiylashtirish bosqichida esa barcha hujjatlar to‘liq va talabga muvofiq yuritiladi, xodimlarga nisbatan ijtimoiy kafolatlar va kasaba uyushmalari faoliyati yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Motivatsiyada asosan ma’naviy rag‘batlantirish usullari qo‘llaniladi, moliyaviy imkoniyatlar esa cheklangan. Xodimlarni rivojlantirishda malaka oshirish va ustozlik tizimi keng qo‘llanilsa-da, psixologik va shaxsiy rivojlanishga yetarli e’tibor berilmayapti. Baholash, asosan, formal ko‘rinishdagi attestatsiya orqali amalga oshiriladi. Ta’lim muassasalari odatda chiziqli tuzilishga ega bo‘lib, bo‘limlararo hamkorlik zaif rivojlangan. Shu bois, yanada moslashuvchan va samarali boshqaruvin tizimlariga ehtiyoj mavjud. Xodimlar siyosatini rivojlantirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda, biroq resurslar va boshqaruvin malakasining yetishmasligi bunga to‘sinqinlik qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Афанасьев В.Я. Теория менеджмента: учебник и практикум для акад.бакалавриата. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2016. 665 с.
2. Габышева Наталья Владимировна Образовательный менеджмент: понятие и сущность. //Материалы Всероссийской научно-практической конференции “Наука и социум”, №. 7-1, 2018, 29-31 с.
3. Гончаров М. А. Основы менеджмента в образовании: учебное пособие /М.А. Гончаров. – 3-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2016. – 476 с.
4. Максимцова М.М., Комарова М.А. Менеджмент: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Единство, 2002. – 359 с.
5. Райченко А.В. Общий менеджмент: Учебник. – М.: ИНФРА, 2012. 383 с.
6. Сетков В.И. Основы общего менеджмента (краткий курс) / В.И. Сетков. – М.: ИНФРА-М, 2003. – 169 с.
7. Поршнева А.Г., Румянцевой З.П., Саломатина Н.А. Управление организацией: Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 716 с.

